



# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


## QURILISH ISHLARI

2020-yil yanvar-mart oylari

2020-yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida jami - 3 325,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o'sish sur`ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil etdi.

### Toshkent shahrida qurilish ishlari hajmi

(mlrd. so'm)



## TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi - 829,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 24,9 % ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan 1,2 % punktga ko`paygan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmining 61,3 % to`g`ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,8 % punktga ko`paygan. Shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ni tashkil etgan holda - 2 037,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

- o'sish sur'ati - 109,7 %


- ulushi -



### Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

- o'sish sur'ati - 111,3 %


- ulushi -



### Norasmiy sektor


- o'sish sur'ati - 72,5 %

- ulushi -




Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,5 % punktga kamaygan, 13.8 % ni tashkil etdi va - 458,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019-yilining yanvar-mart oylariga nisbatan 72,5 % ni tashkil etdi.

## TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshoatlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **68,0** % yoki - **2260,1 mIrd. so`mlik** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan - **721,7 mIrd. so`mlik** ishlar bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **99,3** % ni tashkil qildi.




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan - **1248,6 mIrd. so`mlik** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **111,6** % ni yangi qurilish ishlari bo'yicha ishlar bajarildi.

Norasmiy sektor bo'yicha yangi qurilish hisobidan - **289,8 mIrd. so`m** ishlar bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **57,4** % ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlaringin faoliyat turlari bo`yicha tarkibi

(jamiga nisbatan % da)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar-joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

## Bino va inshoatlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Bino va inshoatlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 18,3 % ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga ko`paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 5,9 % punktga ko`paydi, 58,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 7,5 % punktga kamayib, jamiga nisbatan 23,2 % ni tashkil qildi.

# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


## Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari



Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 62,2 % ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 37,8 % ni (0,1 % punktga kamayish) tashkil etdi.

## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,8 % punktga kamaydi va 7,8 % ni tashkil etdi.

Qolgan 92,2 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,8 % punktga ko'paydi.

## Mulkchilik shakllari bo`yicha qurilish ishlari tarkibi


(jamiga nisbatan % da)

2,9

Davlat mulki

97,1

Nodavlat mulk




Davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar tomonidan - 94,8 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,9 % ni tashkil qildi, ya`ni 2019-yil yanvar-mart holatiga nisbatan 2,0 % punktga ko'paygan.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan - 4 477,9 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 97,0 % ni tashkil qildi.

# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

## Tumanlar kesimida qurilish ishlari


(mlrd. so` m)



Qurilish ishlarining tumanlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Sergeli tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 % ni tashkil etdi.

## Tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




● Yirik qurilish tashkilotlari   ● Kichik korxonalar   ● Norasmiy sektor

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Olmazor (tumandagi qurilish hajmining 49,9 % ni tashkil etgan) va Chilonzor (mos ravishda, 42,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

## Tumanlar kesimida qurilish ishlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Bektemir tumanida 3,3 % kuzatildi. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlarining 85,2 % ni tashkil etdi.




## TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Toshkent shahrining qurilish ishlari bo'yicha yuqori o'sish sur'ati – 103,6 % ga ko'tarildi:

- "Yunusobod" va "Sergeli" metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo'lida elektropoyezdlar uchun temir yo'l qurilishi;
- Ko'ksaroy majmuasining qurilishi;
- Xalqaro Islom markazi binosining qurilishi;
- Toshkent shahridagi "Navro'z" istirohat bog'ining qurilishi;

- "Toshkent-Sharqiy" aerodromi bazasida fuqarolik aviatsiyasi zamonaviy aeroport majmuasi qurilishi boyicha bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul:** *Sh.Samiyev*  
**Aloqa telefoni:** *(0371) 230-88-19*